MA’NAVIYAT JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI

Rashidova Baxti Yaxyaevna
Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o’qituvchisi

Abdugafforov Nurbek
JizPI Trasport fakulteti talabasi

Annatasiya: Dunyoda g‘oyadan kuchli qurol bo‘lmaydi. Bugungi kunda yovuz kuchlar o‘z g‘arazli g‘oyalarini tarqatish uchun internetdek tayyor «dastyor»dan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqda. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar aynan «ommaviy madaniyat»ni targ‘ib etishning eng keng tarqalgan vositasiga aylanib boryapti. Bundan bolalarimizni asrashimiz lozim. Bu masala bugun hammani, ya’ni, butun jamiyatni o‘ylantirishi shart.

Kalit so’zlar: Ma’naviyat, mafkura mafkuraviy bo‘shliq, jamiyat, ilm-ma’rifat, globallashuv, qadriyat, vatanparvarlik, tarbiya, komil inson, salbiy illatlar.

Biz globallashuv davrida yashayapmiz. Uning bosh xususiyati shuki, er yuzining istalgan nuqtasida paydo bo‘lgan bir yangilik zudlik bilan butun dunyoga yoki uning juda katta qismiga tarqaladi. Ammo bu yaxshi yangilik bo‘lishi ham, yomon yangilik bo‘lishi ham mumkin. Aynan shuning uchun ham, xuddi tayoqning ikki uchi bo‘lgani kabi, globallashuvning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor. Ijobiyligi shundan iboratki, bugun fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, bozor, ta’lim, madaniyat, adabiyot-san’at va boshqa sohalardagi har qanday ezgu jihat misli ko‘rilmagan tezlik bilan keng tarqalyapti, qit’adan-qit’aga, yurtdan-yurtga o‘tib, umumbashar mulkiga aylanib boryapti. [1.91-bet]

Salbiy jihati esa tezkor taraqqiyot va bozor iqtisodiyoti har qanday mamlakatga o‘zining barcha noxush tomonlari bilan birga kirib keladi. Bu esa globallashuvning salbiy tomonlaridan insonlarni ehtiyot bo‘lishga undaydi.YOt kuchlar zamonning ana shu xususiyatidan o‘z manfaatlari, yovuz maqsadlari yo‘lida foydalanishga, turli zararli g‘oya va mafkuralarni dunyo bo‘ylab tarqatishga zo‘r berib urinaveradi. SHu tariqa hozirgi zamonda odamlar qalbi va ong-tafakkurini zabt etishga urinish o‘zaro kurashning asosiy maydoniga aylanib ulgurgan.

Globallashuv davrini kompyutersiz, internet tarmog‘isiz aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugun kompyuterni bilmaydigan, internet tarmog‘i imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan odamlar zamondan ortda qolgan hisoblanadi. Yoshlarimiz shuni his etgan holda kompyuter va internetdan foydalanishni puxta o‘rganishmoqda. Yana bir jihatni aytish kerakki, bugun internetdan foydalanish uchun kompyuter sotib olish shart emas. Zamonaviy uyali telefonlar orqali internet tarmog‘iga bemalol ulanish va undan istagancha foydalanish mumkin. Xo‘sh, internet ham yaxshi, ham yomon ma’lumotlar o‘chog‘i hisoblansa, yoshlarimiz undan bemalol foydalanayotgan bo‘lsa, ular tarmoqlardan qaysi ma’lumotlarni olayotganini kim nazorat qiladi? Aytish joizki, internetdan foydalanish uchun bir oz xarajat ham kerak bo‘ladi. Bu xarajatlar, albatta, oila byudjetidan ajratiladi. Biz – farzandsevar xalqmiz, hayotimizni bolalarimizga tikkanmiz, ulardan hech narsamizni ayamaymiz. Biroq... Gap shundaki, internet orqali bolalarimiz aqlan o‘sib, ma’nan etuklikka erishishi, komil inson bo‘lib tarbiyalanishi, ilm-ma’rifat o‘rganib, ezgulikka intilishi mumkin. [2. 31-36 - betlar]

Bugungi kunda internetdan foydalanmay turib zamon talablariga javob beradigan mutaxassis bo‘lib etishishni mutlaqo ko‘z oldimizga keltira olmaymiz. Shu bilan birga, aynan internetning salbiy

ta’sirida farzandlarimiz ong-tafakkurining yomon tomonga o‘zgarishi mumkinligini ham nazardan qochirib bo‘lmaydi. «Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi». Dono xalqimiz bu hikmatni bejiz aytmagan. Bugun aynan internet orqali fe’l-atvori o‘zgarib, odamovi bo‘lib borayotgan, shuningdek, jinoyatchi qiyofasiga kirib, o‘zini o‘zi o‘ldirayotgan hamda terrorchiga aylanib, qo‘liga qurol olayotgan yoshlarimiz ham yo‘q emas. Hozir ko‘chalarda yoshlarga e’tibor qiling: deyarli hammasining qo‘lida zamonaviy telefon, qulog‘ida go‘shak. Ayrimlari dasturxon atrofida ham internet xabarlarini o‘qigani-o‘qigan. Atrofdagilar bilan ishi yo‘q. Hayot bilan qiziqmay qolgan, fikri hayoli qo‘lidagi ana shu «matoh»da. Internet-kafelar ham yoshlarimiz bilan gavjum. Ammo bu erga kirgan farzandlarimiz internetdan nima maqsadda foydalandi, nimalarni oldi, qanday o‘yin o‘ynadi, kimga nima yubordi. Bularni kim nazorat qiladi?

Dunyoda g‘oyadan kuchli qurol bo‘lmaydi. Bugungi kunda yovuz kuchlar o‘z g‘arazli g‘oyalarini tarqatish uchun internetdek tayyor «dastyor»dan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqda. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar aynan «ommaviy madaniyat»ni targ‘ib etishning eng keng tarqalgan vositasiga aylanib boryapti. Bundan bolalarimizni asrashimiz lozim. Bu masala bugun hammani, ya’ni, butun jamiyatni o‘ylantirishi shart.

2017 yilning 15 iyun kuni poytaxtimizda «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusida anjuman o‘tkazildi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev nutq so‘zlab, jumladan, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo‘qligini qayd etdilar. «Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solayotgani» alohida ta’kidlandi. Xo‘sh, diniy-ekstremistik g‘oyalar ta’siriga tushib, bugun xorijiy davlatlarda xunrezliklarga sherik bo‘lib qolgan yoshlarni aynan internet o‘z to‘riga ilintirmadi, deb kim ayta oladi. [3.57-bet] Ana shu salbiy oqibatlarga qarab aytish mumkinki, hozirgi zamonda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat boshiga bitgan balo ham bo‘ldi. Vayronkor g‘oya ilmsiz jamiyatga ko‘proq bostirib kiradi. SHuning uchun fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi esa ma’rifat bilan kurashmoq zarur. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamiyatda ilm-ma’rifatni ravnaq toptirish eng muhim vositalar sirasiga kiradi. Ma’naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan kuch – mafkuraviy immunitet. Keyingi paytlarda tilimizda «tahdidbardoshlik» degan yangi atama ham paydo bo‘ldi. Tovar bozor sharoitida raqobatdosh bo‘lgani kabi, kishilar ongi va qalbini egallash uchun kuchli raqobat kechayotgan hozirgi o‘ta murakkab va tahlikali zamonda aynan jamiyatning tahdidbardoshligini ta’minlash ham juda muhimdir.

So‘nggi yillarda ma’naviy-ma’rifiy sohalarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”,-degan edilar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev. Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari shiddatli tus olgani, o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri mamlakatimizda ham sezilayotganini barchamiz sezib turibmiz. Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba’zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda.

2023 yil 22 dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Prezident Shavkat Mirziyoev raisligidagi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari quyidagi so‘zlarni ta’kidladi: “Tarixdan ma’lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan

millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. Shu bilan birga ma’naviyat masalasi borasida o‘z fikrlarini quyidagicha ifoda etdilar: “Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat Ma’naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o‘ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir-, deydi Prezident. Bugungi kunda yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob berayaptimi? Yuqoridagi fikrlar va savollar esa har birimizning oldimizga muhim vazifalarni qo‘ymoqda.O‘z navbatida esa biz ziyolilarni tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashda yanada faol bo‘lishga, ma’naviy fazilatlar bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022 yil, 21 dekabr, № 259(781)
2. Yo‘ldosheva S.M. Sog‘lom turmush tarzi – tahdidlarga qarshi kurash omili sifatida. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarning o‘rni. // T.:2009. 191 b.
3. Tulenova.G «O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash muammolari // Huquq. T.:1999, № 5. 31-36 b.
4. Islamov I.N. Ma’naviyatga tahdid – kelajakka tahdid. Globallashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, echimlar va istiqbollar. Konferensiya materiallari.-T.:2009, 57 b.
5. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.
6. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(3), 37-40.
7. Рашидова, Б. Я. (2024). ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ҚАНЧА МУКАММАЛ БЎЛСА, ХАЛҚ ШУНЧА БАХТЛИ ЯШАЙДИ. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 464-469.
8. Рашидова, Б. (2022). ЮКСАК МАЪНАВИЯТ АВВАЛО ИНСОН ОДОБИДА НАМОЁН БЎЛАДИ. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 351-355.
9. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(1), 162-168.
10. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2021). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNING O’RNI. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, *3*(7), 25-29.
11. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2021). MANAVIY QADRIYATLARIMIZ-MILLIY TARBIYA OMILI. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, *5*(1), 137-140.
12. Yahyoyevna, O. F. (2023). FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION. *World Economics and Finance Bulletin*, *18*, 72-77.
13. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2023). BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(3), 208-215.

14. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2023). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(3), 203-207.
15. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *2*(22), 243-248.
16. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(34), 290-294.
17. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(4), 608-612.
18. Obidova, F. Y. (2017). REFORMING OF THE EDUCATIONAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Actual scientific research in the modern world*, *13*(11-13), 87.